

SEMINAR BO‘LIB O‘TDI



Surxondaryo viloyati Termiz shahri, Yoshlar markazi binosida “Besh tashabbus olimpiadasi”ning 2023-yil ikkinchi mavsumi mahalla bosqichlarini namunali o'tkazish bo'yicha Termiz shahrining mahalla yetakchilari ishtirokida o'quv-seminar tashkil etildi.

O'quv-seminarda O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi 5 tashabbusni muvofiqlashtirish boshqarma boshlig'i Sh.Olimov tomonidan kerakli va zarur chora-tadbirlar haqida ba'tafsil tanishtirildi.

Ma'lumot uchun: Olimpiadaning ushbu mavsumini joriy yil sentabr-dekabr oylarida tashkil etish rejalashtirilgan bo'lib, yoshlar bevosita mazkur olimpiada doirasida san'at-madaniyat, sport, kitobxonlik va intellektual o'yin va tanlovlarda ishtirok etishlari mumkin.